

## AVTOMOBIL YO'LLARIDA PIYODALAR XAVFSIZLIGINI TAMINLASH

**Abdimurodov Shoxrux Sayfiddin o'g'li**  
(Toshkent davlat transport universiteti)  
**Karimov Ozodjon Uzoqovich**  
(Toshkent davlat transport universiteti)

**Аннотация:** *maqolada yo'l harakati ishtirokchilari-piyodalar xavfsizligini ta'minlashga ilmiy-uslubiy yondashuv aks etib, piyodalar xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan 9 qadam taklif etilgan.*


**Abstract:** *the article reflects the scientific and methodological approach to ensuring the safety of road users-pedestrians and proposes 9 steps to ensure the safety of pedestrians.*

**Калит сўзлар:** *harakat xavfsizligi, yo'l harakati ishtirokchilari, piyodalar, ilmiy-uslubiy yondashuv.*

**Keys words:** *Traffic safety, road users, pedestrians, scientific- methodological approach.*

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy salohiyati o'sib borishi bilan avtomobil transporti va kommunikatsiyalari ham rivojlanib bormoqda. Bunday o'zgarishlar aholimizning ijtimoiy rivojlanishi darajasi bilan bog'liqdir. Tarmoqning rivojlanishi harakat xavfsizligini ta'minlash sohasida ma'lum muammolarni keltirib chiqarmoqda: yo'l-transport hodisalarining sodir bo'lib turishi, uning oqibatida insonlarning hayotdan ko'z yumishi yoki turli darajada tan jarohatlarini olishi, avtomobil yo'llarida va shahar ko'chalarida tirbandliklarning yuzaga kelishi, atrof muhitning ifloslanishi shular jumlasidandir. Muammoning eng ayanchlisi insonlarning jismoniy talofat olishlaridir. Bu esa jamiyatimizning ijtimoiy muammosidir. Bu muammolarni bartaraf etish va harakat xavfsizligini ta'minlashni takomillashtirish maqsadida hukumatimiz tomonidan qator qonun va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 11 iyuldagi PQ-3127-sonli "Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi hududida 2022 yilda 9 902 ta yo'l transport hodisalar ro'y bergan, buning natijasida 2 086 ta odam halok bo'lgan va 9 606 kishi jarohatlangan. Shundan Yo'l-transport hodisalarining kelib chiqish ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bo'yicha eng ko'p belgilangan tezlikka rioya qilmaslik – 15,8%, yo'lni ikkiga ajratuvchi to'siqlar o'rnatilmaganligi 13,6%, piyodalar harakatini cheklovchi to'siq (panjara)lar o'rnatilmaganligi – 11,6%, haydovchining tajribasizligi – 10,6% va piyodalar o'tish joylarining tashkil etilmaganligi - 10,3 %ni tashkil qilmoqda.



1–rasm O‘zbekiston Respublikasida 2023 yilda sodir bo‘lgan YTH larning turlari bo‘yicha tahlili


Yo‘l harakati qoidalarining yo‘lovchilar tomonidan buzilishi faqat ularning salomatligiga xavf solsa, transport vositalari haydovchilarining bunday xatti-harakatlari ham o‘zlari, ham yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilari-boshqa transport vositalarining egalari, yo‘lovchilar va ayniqsa, piyodalar uchun og‘ir oqibatlariga olib kelishi bilan xavflidir.

1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlar bo‘yicha tahlil qilinayotgan davr mobaynida eng ko‘p sodir bo‘lgan YTH turi - “Piyodani urib yuborish” hisoblanadi. Rasmlardagi ma‘lumotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, piyodalar bilan sodir bo‘ladigan YTH lar profilaktikasi ilmiy-uslubiy yondashuvni taqozo qiladi.

Harakat xavfsizligini ta‘minlashda inson yo‘l harakatining asosiy ishtirokchisi: haydovchi, yo‘lovchi, piyoda va harakatni tashkil qiluvchi sifatida qatnashadi. Bularning ichida haydovchi va piyoda alohida o‘rin egallaydi, shuning uchun harakatni tashkil qilishda uning psixologik, fiziologik va biologik imkoniyatlarini e‘tiborga olish zarur.

Piyodalar xavfsizligini oshirish qobiliyati yo‘l-transport jarohatining oldini olish sa‘y-harakatlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning oldini olish mumkin, chunki piyodalar yo‘l transport harakatida ishtirok etar ekan, bu holat doimiy xatar deb qabul qilinishi kerak emas. Piyodalar uchun asosiy xavf bu – harakatlanayotgan transport vositasi ekanligi juda yaxshi ma‘lum va bu turli omillarni o‘z ichiga oladi: haydovchilar xulqi, madaniyati, Yo‘l harakati qoidalari to‘g‘risidagi bilimlari, transport vositalarini boshqarish mahoratlari, ayniqsa, xavfsiz tezlikni tanlay olishlari va mast holda avtomobilni boshqarishlari, piyodalar yo‘lakchasi holati, yo‘ldan o‘tish joyi yo‘qligi yoki belgilanmaganligi va boshqalar.

«Piyodalar xavfsizligini ta'minlashga 9 qadam» tizimining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:



2-rasm. Piyodalar xavfsizligini ta'minlashga 9 qadam» tizimi

–Transport tizimi doirasida insonlar xatosining bo'lib turishini tan olish. Odamlar yo'l harakati jarayonida xato qilishlikni davom ettirar ekan, jarohat olish va o'lim holatlari yuz berib turadi. «Piyodalar xavfsizligini ta'minlashga 9 qadam» tizimi yo'l harakati ishtirokchilarining xulqini o'zgartirish tadbirlarini ko'rib chiqmaydi, lekin yo'l harakati ishtirokchilari xulqi yo'llardagi xavfsizlikni ta'minlash uchun lozim bo'lgan qator unsurlardan biridir;

–Insonlar jismoniy zaif, ularning qarshiligi chegarasiz emas. Qo'pol jismoniy kuchga nisbatan insonning qarshiligi chegarasi mavjud, agarda bu kuch ortib ketsa, oqibatda inson og'ir tan jarohati oladi yoki vafot etadi;

–Yo'l harakati xavfsizligi sohasida etikani tashviqot qilish. Etika tamoyillari “Piyodalar xavfsizligini ta'minlashga 9 qadam» tizimiga yondoshuv asosi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi “Bilimli avlod-buyuk kelajakning, tadbirkor xalq-farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir” nomli ma'ruzasida yo'l harakati xavfsizligi muammolariga alohida to'xtalib o'tib, yo'l harakati ishtirokchilari madaniyati pastligini ta'kidlab o'tgan edi;

–Ijtimoiy qadriyatlarni tashviqot qilish. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bilan birga

yo'l-transport tizimi ijtimoiy qadriyatni namoyish eta olishi kerak. Bunda asosan quyidagi sohalar: iqtisodiy rivojlanish; aholi sog'lig'i va atrof-muhit muhofazasi; shaxsiy tanlov huquqi;

–Katta ehtimollik omillar doirasini keng tahlili. Tizim nuqtai nazaridan piyodalar xavfsizligi muammosini tadqiq qilish, piyodalar uchun xavf manbai hisoblanadigan qator omillarni e'tiborga oladi: - transport vositasi tezligi, yo'llarni sifatsiz loyihalashtirish va yo'l harakatiga tegishli meyor va qonunlarning qoniqarsiz qo'llanilishi. "Piyodalar xavfsizligini ta'minlashga 9 qadam» tizimi yondashuvi piyodalar xavfsizligi muammosi yechimiga odatiy holatdan o'zgacha, keng qamrovli yondashuvni amalga oshiradi;

–Kompleks tadbirlar integratsiyasi. Piyodalar xavfsizligini ta'minlashda transport vositasi konstruksiyasiga, yo'l infratuzilmasiga, yo'l harakati nazorati vositasiga, xususan tezlik rejimini chegaralash, yo'l harakatiga taalluqli qoida, qonun va meyorlarning qo'llanilishi "Piyodalar xavfsizligini ta'minlashga 9 qadam» tizimining tayanch nuqtalaridir;

–Olingan darslarni o'zlashtirish. Bu yo'nalish transport vositalari keskin o'sib borayotgan hududlar uchun dolzarbdir. Piyodalarning xavfsizligini ta'minlashdagi barcha profilaktik tadbirlar samarali tashkil etiladi;

–Hamkorlar bilan birgalikda faoliyat olib borish. Piyodalar xavfsizligi ko'p qirrali muammo bo'lib, kompleks yondashuvni talab etadi. Piyodalar xavfsizligini ta'minlash uchun yondashuv kelishilgan holda, mazkur siyosatni ishlab chiqaruvchilar, strategiyani amalga oshirishga javobgarlar, olimlar, fuqarolar jamoatchiligi va barcha aholini o'z ichiga olishi kerak;

–tizim hisobotini tashviqot qilish. Yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha javobgarlik yo'l harakati ishtirokchilari va tizimni ishlab chiqqanlar orasida taqsimlanishi kerak. Shuningdek, yo'ldan foydalanuvchilar yo'l harakati qoidalariga rioya qilishlari, tizimni ishlab chiquvchilar va operatorlar esa barcha yo'l harakati ishtirokchilarini maksimal darajada xavfsizligini ta'minlovchi transport tizimini ishlab chiqishga javobgardir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1MN Usmanova, SS Radjabova (2022). ТРАНСПОРТ ОҚИМИНИ МОДЕЛЛАШТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Scientific progress 3 (1) 992-997.

2ШК Хакимов, МН Усманова, СС Ражапова (2022). СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО ТРАНСПОРТА. Экономика и социум 9 (100) 705-714.

3МН Усманова (2022). Интеграция высшего учебного заведения и предприятия при подготовке специалистов по безопасности движения. Экономика и социум 1-2 (92) 276-280.

4МН Усманова (2020). Подход к решению проблем по обеспечению безопасности дорожного движения.

5МН Усманова, ДФУ Йулдошев (2020). Пути повышения безопасности дорожного

движения. Проблемы науки 2 (50) 25-26

6Н Усманов, М Усманова (2021). Узбекистан на пути демократических преобразований. Экономика и социум 11-2 (90) 530-533.

7Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ЕНГИЛ ВА ЮК АВТОМОБИЛЛАР ИШТИРОКИДАГИ ЙТҲ ТАҲЛИЛИ. ИJODKOR O'QITUVCHИ 2 (24) 216-219.

8OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.

9ШХ Шерматов, ШИ Аброев, ЭХ Абдусаматов (2022). ВЛИЯНИЕ ДОРОЖНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ НА ПЕШЕХОДНОЕ ДВИЖЕНИЕ НА ПЕРЕСЕЧЕНИИ АХАНГАРАНСКОЙ ПАРКЕНТСКОЙ И ОБЪЕДИНЕННОЙ ДОРОГ. Экономика и социум 12-1 (103) 1089-1096.

10ШК Хакимов, РГ Саматов, СС Ражапова, ДА Абдураззакова, Э Абдусаматов, Ш Аброев (2022). СНИЖЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ВЫХЛОПНЫХ ГАЗОВ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ ПУТЁМ КОМПЬЮТЕРНОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПЕРЕКРЕСТКА. Экономика и социум 9 (100) 715-724.

11ШХ Шерматов, ШИ Аброев, ЭХ Абдусаматов, НҲ Турсунов, ЖА Чориев (2022). МЕТОД ОПРЕДЕЛЕНИЯ ГОРЯЧИХ ЗОН ГОРОДСКИХ ДОРОЖНО-ТРАНСПОРТНЫХ ПРОИСШЕСТВИЙ. Экономика и социум 12-1 (103) 1097-1104.

12Ў Исоханов, Э Абдусаматов, С Турдибеков (2022). ПИЁДА ИШТИРОКИДА ЁНЛАНМА МАСОФА САҚЛАНМАСДАН СОДИР ЭТИЛГАН ЙТҲ ТАҲЛИЛИ. ИJODKOR O'QITUVCHИ 2 (24) 220-222.

13OI Inoyatovich, AE Xalim o'g'li, TS Qodirovich (2023). AVTOMOBIL YO 'L EKSPERTIZASI BO 'YICHA YA'NI YO 'L SABABLI SODIR ETILGAN YTH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2 (18) 442-446.